



ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

12
2024

ISSN 2181-6833



9 772181 683301

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

12-son (2024-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 12

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM			
1.	<i>ALMARDANOV Jo‘rabek Bobonazarovich</i>	Aksiologik yondashuv asosida bolalarda kommunikativ sifatlarni shakllantirish	8
2.	<i>BO‘RIYEVA Fayyozax Boxodirovna</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish – metodlari	12
3.	<i>DJURAYEVA Salomat Nabiyevna</i>	Boshlang‘ich ta‘limda etnopedagogik namunalaridan yordamida zamonaviy texnologiyalar qo‘llash	17
4.	<i>FAYZULLAYEV Sharipboy Nurilloevich</i>	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirish	21
5.	<i>MASHRABJONOV Ulug‘bek Azamjon o‘g‘li</i>	Mental arifmetikada qo‘l matorika mashqlari va uning foydali tomonlari	25
6.	<i>MIRZAYEVA Dilfuza Shavkatovna</i>	Art pedagogikasi texnologiyalarini qo‘llash asosida tayyorlov guruhi bolalarining ijodkorligini rivojlantirish	29
7.	<i>PAXRATDINOVA Roza Azatbayevna</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsini shakllantirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati	35
8.	<i>PRATOV Saidmurod Irgashovich</i>	O‘yin faoliyati jarayonida bolalarda tolerantlik tuyg‘ularini tarkib toptirish	39
9.	<i>RO‘ZIYEVA Gulnigora Shuxrat qizi</i>	Maktabgacha ta‘lim tizimining rivojlanish tarixi: o‘zbekistonda va dunyoda	43
10.	<i>TOSHPULATOVA Nargiza Abduraimovna</i>	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 5-6 yoshli bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish	48
11.	<i>XAYDAROVA Shaxlo Narzullayevna</i>	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tashkil etiladigan turizm va uning bolalar rivojlanishiga ta‘siri	55
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH			
12.	<i>ADILBEKOVA Aziza Vladimirovna</i>	Motivational techniques in the efl classroom: engaging students in language learning	60
13.	<i>FAYZULLAYEVA Nazokat Abdusattorovna</i>	Improving grammar competence among the secondary pupils	64
14.	<i>OCHILOVA Fayyozax Mansurovna</i>	Talabalarda tilshunoslik madaniyatiga oid ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi	69
15.	<i>ORTIQOVA Gulchexra Xamzayevna</i>	Umumta‘lim maktablarida harakat tarzi shakllarining o‘qitilishi	73
16.	<i>UMAROVA Shaxnoza Maxmudjanovna</i>	“Ona tili” fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasi	79
17.	<i>VOSIYEVA Shaxnoza Islamovna</i>	Oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari	85
18.	<i>XOLIQOVA Ra‘no Musurmon qizi</i>	5-6 sinf ona tili ta‘limida o‘quv topshiriqlarini tavsifi va tasnifiga doir metodik yondashuvlar	89
19.	<i>YANGIBAEVA Anorkhol Karaboevna</i>	Affects of technology integration in second language acquisition	96
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH			
20.	<i>ABDIMUROTOV Oybek Uralovich</i>	Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan mustaqil ta‘limni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish mexanizmlari	100

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA GEOGRAFIYA FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Abdimurotov Oybek Uralovich,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD)

o.abdimurotov@cspi.uz

Mazkur maqola axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) geografiya fanini o‘qitishdagi o‘rni va ahamiyatini tahlil etadi. AKT geografiya ta’limida interaktiv va vizual usullarni qo‘llash orqali talabalarga mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi, analitik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Geografiya fanining o‘qitilishida GIS, interaktiv xaritalar, 3D modellash, onlayn resurslar va masofaviy ta’lim vositalari orqali talabalar zamonaviy geografik jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqolada, shuningdek, AKT yordamida o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish, global ma’lumotlarga tezkor kirish, va o‘quv materiallarini yangilash kabi imkoniyatlar ham ko‘rsatilgan. Axborot texnologiyalarining geografiya ta’limida samarali qo‘llanishi, pedagogik yondashuvlar va ta’lim resurslarining yangilanishi orqali o‘quvchilarga yanada interaktiv, samarali va qiziqarli o‘qitish usullarini taqdim etishga yordam beradi.

***Kalit so‘zlar:** Geografiya, kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), 3D modellash, geografik axborot tizimlari, interaktiv o‘qitish, Yandex Maps, Google Earth, Ventusky, LearningApps, Wordwall, iSpring.*

МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО ГЕОГРАФИИ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье анализируется роль и значение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в преподавании географии. Используя интерактивные и наглядные методы в обучении географии, ИКТ создают возможности для самостоятельного обучения учащихся, развивают навыки аналитического и аналитического мышления. При преподавании географии с помощью ГИС, интерактивных карт, 3D-моделирования, онлайн-ресурсов и инструментов дистанционного обучения учащиеся получают возможность наблюдать, анализировать и приобретать практические навыки современных географических процессов в режиме реального времени. Также в статье показаны возможности индивидуализации образовательного процесса с помощью ИКТ, быстрого доступа к глобальной информации и обновления учебных материалов. Эффективное использование информационных технологий в образовании по географии помогает предоставить учащимся более интерактивные, эффективные и интересные методы обучения за счет обновления педагогических подходов и образовательных ресурсов.

***Ключевые слова:** География, кредитно-модульная система, самостоятельное образование, педагогические технологии, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), 3D-моделирование, геоинформационные системы, интерактивное обучение, Яндекс Карты, Google Earth, Ventusky, LearningApps, Wordwall, iSpring.*

MECHANISMS OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN GEOGRAPHY WITHIN THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM ON THE BASE OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES

This article analyzes the role and importance of information and communication technologies (ICT) in teaching geography. By using interactive and visual methods in geography education, ICT creates opportunities for independent learning for students, develops analytical and analytical thinking skills. In the teaching of geography, through GIS, interactive maps, 3D modeling, online resources, and distance learning tools, students will have the opportunity to observe, analyze, and acquire practical skills in modern geographic processes in real time. The article also shows the possibilities of individualization of the


educational process with the help of ICT, quick access to global information, and updating of educational materials. Effective use of information technology in geography education helps to provide students with more interactive, effective and interesting teaching methods through updating pedagogical approaches and educational resources.

Key words: Geography, credit module system, independent education, pedagogical technology, information and communication technologies (ICT), 3D modeling, geographic information systems, interactive teaching, Yandex Maps, Google Earth, Ventusky, LearningApps, Wordwall, iSpring.

Kirish. Bugungi kunda davlatimiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, O‘zbekistonning jahonda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun mamlakatimizda yashaydigan yoshlarni barkamol aql egalari, yuksak madaniy saviya va ma’naviyatga ega bo‘lishlari, zamonaviy ta’lim tizimi sifatiga qo‘yilgan talablarning ortib borishi natijasida xalqaro talablarga mos yuksak bilimli, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yo‘nalishidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Shu islohatlar negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan — “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da: mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish; talabalar bilimni baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta’minlash, jumladan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish kabi bir qator vazifalar belgilangan [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarini kredit-modul tizimiga o‘tkazish, o‘quv jarayoniga axborot - kommunikatsiya texnologiyalari negizida yaratilgan turli xildagi elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanish va qadamba-qadam an’anaviy o‘qitish metodlaridan zamonaviy o‘qitish metodlariga o‘tishni taqozo etmoqda. Shu boisdan bugungi kunda ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. AKT nafaqat o‘quv jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi, balki ta’lim metodologiyasining yangi yondashuvlari va shakllarini yaratishga imkon beradi. Geografiya fanini o‘qitishda ham bu texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular talabalarga yanada interaktiv, vizual, dinamik va mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan oliy ta’lim muassasalar amaliyotini tahlil qilsak, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo‘lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil ta’lim soatlari nisbati o‘rtacha 40 foizga 60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi auditoriya va mustaqil ta’lim soatlari nisbati

Zamonaviy ta’lim tendensiyalariga muvofiq XXI asrning mustaqil, zamonaviy, intellektual, raqobatbardosh, kommunikativ kompetentli o’qituvchisining mahorati talabalarga faqat darsliklarda mavjud bilimni berish bilan emas balki, ularni o’z ustida mustaqil ishlashga, kreativ, mantiqan mustaqil fikr yuritishga, bugungi zamonaviy ilm-fan va nofilologik yutiqlaridan xabardorlik, innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, kasbiy kompetentlik darajasini oshib borishida o’z fikr-mulohazalarini guruh jamoasi oldida mustaqil tarzda isbotlashga o’rgatishi bilan baholanadi [2].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari geografiya o’qitishda samaradorlikni oshiradi, chunki ular talabalarga o’zlarining individual mustaqil o’rganish usullarini tanlash imkonini beradi. Masalan, interaktiv mashg’ulotlar, video darsliklar va onlayn resurslar yordamida talabalar geografik bilimlarni mustaqil ta’lim olishlari orqali o’zlashtirishlari mumkin. Bunday texnologiyalar yordamida ta’lim materiallari faqat o’qish yoki eshitish orqali emas, balki vizual va amaliy faoliyat orqali o’zlashtiriladi. Bu esa talabalarni yanada faol ishtirok etishga undaydi va dars jarayoniga chuqurroq kirib borishlariga yordam beradi hamda AKT texnologiyalari bu fanni yanada qiziqarli va interaktiv qilishga imkon beradi. Masalan, interaktiv xaritalar, simulyatsiyalar, GIS (geografik axborot tizimlari) va 3D modellash texnologiyalari yordamida talabalar tabiat va jamiyatning o’zaro aloqalarini real vaqt rejimida kuzatishlari, turli geografik hodisalar va jarayonlarni kuzatishlari mumkin. Bu talabalarda fan bilan bog’liq qiziqishni oshiradi va ta’limning o’ziga xos jihatlari e’tiborini yanada kuchaytiradi.

Geografiya o’qitish jarayonida AKT texnologiyalari talabalarga mustaqil ta’lim olish bilan birga mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Internet va raqamli resurslar orqali talabalar o’z bilimlarini sinash, tahlil qilish va yangi ma’lumotlarni o’zlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. GIS tizimlari va boshqa tahliliy dasturlar yordamida ular turli geografik hodisalarni tahlil qilib, o’zlarining fikrlarini raqamli ma’lumotlar bilan tasdiqlashlari mumkin. Bu metodlar talabalarning analitik va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, ular mustaqil o’rganish va o’z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta’limni individualizatsiya qilishga urg’u beradi. Har bir talaba o’zining o’quv sur’ati va qiziqishlariga ko’ra o’rganish imkoniyatlariga ega bo’lishi kerak. AKT yordamida geografiya o’qitish jarayoni yanada shaxsiylashtiriladi. Misol uchun, interaktiv testlar, onlayn kurslar va ta’lim dasturlari yordamida talabalar o’zlarining bilim darajasini tekshirishi va kerakli sohalarda o’zlashtirishlarini yanada mustahkamlashi mumkin. Bu talabalarga o’z o’rganish jarayonlarini mustaqil ravishda boshqarish va kerakli yordamni olish imkoniyatini beradi. AKT talabalarga ko’plab yangi ta’lim resurslarini taqdim etadi. Multimedia vositalari (audio, video, interaktiv o’yinlar, 3D modellar va boshqalar) geografiya o’qitish jarayonini yanada rang-barang qiladi. Masalan, iqlim o’zgarishlari, tabiiy ofatlar yoki demografik o’zgarishlar kabi mavzularni o’rgatishda video va simulyatsiyalar yordamida talabalarga real hayotdagi misollarni taqdim etish mumkin. Bu resurslar talabalarga murakkab tushunchalarni oson tushunishga yordam beradi va ta’limni yanada samarali qiladi.

Natijalar. Geografiya fanini o’qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlari taqdim etadi.

1. Global ma’lumotlarga tezkor kirish. Geografiya fanida tabiiy va iqtisodiy jarayonlar dinamik bo’lib, ulardagi o’zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish juda muhim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarga geografik voqealarni va ularning global miqyosdagi ta’sirini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi. Internet va raqamli platformalar orqali, masalan, global iqlim o’zgarishlari, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy o’zgarishlar haqida yangilangan ma’lumotlar bilan tanishish, ilmiy tadqiqotlarni o’rganish osonlashadi. Shuningdek, bu ma’lumotlarga tezda kirish geografiya fanining interdisipliner xususiyatini, ya’ni boshqa fanlar (ekologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik va h.k.) bilan bog’lanishini ta’minlaydi.

2. O’quv jarayonini vizualizatsiya va interaktivlashtirish. Zamonaviy AKT texnologiyalari talabalarga murakkab geografik tushunchalarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi. Misol uchun, interaktiv xaritalar, geografik axborot tizimlari (GIS), 3D modellar va simulyatsiyalar talabalarga turli jarayonlarning o’zaro bog’liqligini, masalan, iqlim o’zgarishlari va iqtisodiy resurslar o’rtasidagi munosabatni vizual ko’rinishda ko’rsatish imkonini beradi. Bu esa nafaqat geografik bilimlarni oshiradi, balki talabalarda tahliliy va qiyosiy fikrlashni rivojlantiradi. Interaktiv geografik tizimlar yordamida talabalar o’zlari o’rgangan ma’lumotlar asosida haqiqiy hayotdagi geografik muammolarni yechish bo’yicha amaliy ko’nikmalarni egallashadi.

3. Geografik ma’lumotlarni tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirish. Geografiya fanida ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni grafik va statistik shakllarda taqdim etish katta ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yordamida talabalar GIS tizimlari, raqamli xaritalar va boshqa tahlil dasturlari yordamida geografik hodisalar va jarayonlarni turli o’lchamlarda tahlil qilish imkoniyatiga ega.

Bunday texnologiyalar talabalarga analitik fikrlashni va ma'lumotlarni raqamli shaklda o'rganish, qiyoslash hamda dinamik tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

4. Masofaviy ta'lim va xalqaro o'rganish imkoniyatlari. Masofaviy ta'limni amalga oshirish imkoniyatlari, ayniqsa, geografiya o'qitish jarayonida, ta'limning yanada kengroq imkoniyatlarini ochadi. Talabalar xalqaro onlayn kurslar, forumlar va seminarlarga qatnashish orqali geografiya bo'yicha yangi bilimlar olishadi. Bu nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki turli xalqlarning geosiyosiy va ijtimoiy jarayonlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Global masalalarni (masalan, global iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar) o'rganish uchun talabalar turli mamlakatlardagi ilmiy jamiyatlar bilan hamkorlik qilishi mumkin, bu esa ular uchun muhim xalqaro va madaniy tajriba yaratadi.

5. Ta'limni individualizatsiya qilish. AKT ta'limni individuallashtirishda ham katta rol o'ynaydi. Talabalarning shaxsiy bilim darajasi, qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab o'quv jarayonini moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Multimedia vositalari, onlayn testlar va interaktiv o'yinlar yordamida talabalarning shaxsiy o'quv sur'atiga mos keladigan ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, bu yondashuv talabalarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish va ta'limni ularning individual imkoniyatlariga moslashtirishda yordam beradi.

6. O'quv materiallarini yangilash va doimiy ravishda takomillashtirish.

Geografiya fani doimiy ravishda yangilanib turadigan soha bo'lib, yangi ma'lumotlar va ilmiy izlanishlar doimiy ravishda paydo bo'ladi. AKT yordamida o'quv materiallarini yangilab borish, ilmiy-ommabop ma'lumotlarni talabalarga tezda yetkazish mumkin. Real vaqt rejimida o'zgargan tabiiy yoki iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yangilangan ma'lumotlarni tez va samarali taqdim etadi. Misol uchun, biror hududda sodir bo'layotgan tabiiy ofatlarni yoki yangi iqtisodiy ma'lumotlarni talabalarga darhol yetkazish o'quv jarayonini yanada interaktiv va dolzarb qiladi.

Munozara. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida nafaqat geografiya fani, balki keng ko'lamda barcha fanlar uchun yuksak potensialga ega. Zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchilarga nafaqat faktlarni o'rgatish, balki ularni mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va bilimlarni samarali ravishda boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishdir. AKT bu maqsadlarga erishishda yordam beradi, chunki ular ta'lim jarayonini yanada interaktiv, ko'p qirrali va dinamik qilish imkonini beradi. O'quvchilarga texnologiyalar yordamida turli ma'lumotlarni tezda topish, tahlil qilish va ularni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatlari taqdim etiladi. Shuningdek, AKT pedagoglarga ham ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va ularga moslashtirilgan o'qitish metodlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. AKT texnologiyalari o'quvchilarga nafaqat axborotni o'rganish, balki uni samarali boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham katta yordam beradi. Bunda o'quvchilarga ma'lumotlarni izlash, saralash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari beriladi. Geografiya fanida bu ma'lumotlar kartografik, statistik, va vizual shakllarda bo'lishi mumkin. O'quvchilarga o'zlariga kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda topish, ularni tahlil qilish va o'z bilimlarini kengaytirish imkoniyatini yaratish, ularning mustaqil o'rganish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi. Geografiya ta'limida foydalanish mumkin bo'lgan ilovalar bilan quyidagi jadvalda tanishishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval.

Geografiya ta'limida foydalanish mumkin bo'lgan ilovalarning imkoniyatlari va ahamiyati

Ilova nomi	Foydalanuvchi uchun imkoniyatlar	Geografiya ta'limidagi ahamiyati
Yandex Maps	Yer yuzasining real ko'rinishi, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, ma'lumotlar analizi	Geografik obyektlarni o'rganish, kartografik kompetensiyalarni rivojlantirish
Google Earth	3D tasvirlar, geografik obyektlar va jarayonlarni vizual o'rganish	Yer yuzasi va uning qismlarini interaktiv tarzda o'rganish, geografik obyektlar haqidagi to'liq ma'lumotlar
Ventusky	Ob-havo prognozlari, harorat, yog'ingarchilik, shamol va boshqa parametrlar	Ob-havo sharoitlarini vizual tarzda kuzatish, prognozlar va o'zgarishlarni tahlil qilish
LearningApps	Interaktiv mashqlar yaratish (testlar, juftlarni topish, xronologik jadval)	Bilimlarni mustahkamlash, geografiya bo'yicha test va mashqlar yaratish
Wordwall	Interaktiv mashqlar (krossvordlar, viktorinalar, flesh kartalar)	Geografik tushunchalarni o'rganish, interaktiv mashqlar orqali bilimlarni mustahkamlash
iSpring	Interaktiv viktorinalar, testlar, 3D kitoblar	Bilimlarni nazorat qilish, testlar va viktorinalar orqali o'quvchilarning bilimni baholash

Quyida geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yuqoridagi ilova va dasturlarning xususiyatlari va bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalarini kengroq yoritib beramiz.

“Yandex Maps” dasturiy ilovasi geografiya ta'limi jarayonida nafaqat zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi, balki kartografik kompetensiyalarni rivojlantirish, ma'lumotlarni interaktiv va oson tushuniladigan shaklda taqdim etishning ajoyib vositasidir. Ushbu texnologiya o'quvchilarga geografik bilimlarni amaliy tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. “Yandex Maps” ilovasining geografiya fanidagi o'rni juda katta, chunki u o'quvchilarga Yer yuzasi va uning tarkibiy qismlarini yirik mashtabda va yuqori aniqlikda namoyish etish imkonini beradi. Bu dasturning asosiy afzalliklaridan biri uning sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali taqdim etilayotgan Yer yuzasining real ko'rinishi va raqamli globus sifatida ishlashidir. Geografiya ta'limida xarita yordamida hududni tanishtirish, tabiiy va siyosiy xaritalarni o'rgatish, o'quvchilarga geografik obyektlarni yirik va kichik mashtabda o'rganish imkoniyatini beradi. Bu dastur o'quvchilarga geografik obyektlarni (masalan, tog' tizmalari, daryolar, cho'llar, dengizlar va boshqalar) o'rganish, ularni kartada ko'rish, kattalashtirish va turli geosiyosiy tizimlarni analiz qilish imkonini beradi. Har bir geografik obyektni izlash va o'lchash imkoniyatlari o'quvchilarga nafaqat tasvirlarni, balki ularga bog'liq bo'lgan statistik ma'lumotlarni ham ko'rsatadi. Buning natijasida o'quvchilar kartografik kompetensiyalarini yanada mustahkamlashadi, ya'ni xaritalar orqali mintaqalarni, hududlarni va mamlakatlarni aniq belgilashni o'rganadilar. Misol uchun, biror bir mamlakatni yoki hududni o'rganish jarayonida o'quvchilar masofalar, yo'nalishlar va geografik ob'ektlarning o'zaro joylashuvini vizual tarzda ko'rishlari mumkin. Bu ilova yordamida talabalar mamlakat yoki hududning yuqori sifatli sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali uning umumiy ko'rinishini, ma'muriy-hududiy birliklar (shaharlar, viloyatlar) chegaralarini, suv havzalari va transport tarmog'ini, landshaftlarini hamda ekologik holatini o'rganishi mumkin.

“Google Earth” dasturiy ilovasi geografiya ta'limida ahamiyatli vosita bo'lib, o'quvchilarga Yer yuzasini interaktiv tarzda o'rganish, geografik obyektlar va jarayonlarni yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Ushbu dasturiy ilova orqali o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim va ko'nikmalar o'qitish jarayonida yanada samarali bo'ladi, chunki ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mashg'ulotlarni interaktiv, vizual va amaliy tarzda olib borish imkonini beradi. Google Earth dasturi o'quvchilarga Yer yuzasini va uning qismlarini real va yuqori sifatli 3D tasvirlar orqali o'rganish imkonini beradi. Ushbu dastur sun'iy yo'ldosh tasvirlarini taqdim etadi, bu esa o'quvchilarga butun dunyo va uning geografik xususiyatlarini keng qamrovda, osonlik bilan kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Dastur orqali o'quvchilar geografik obyektlar, mamlakatlar va hududlar haqida aniq va to'liq ma'lumotlar olishadi. Masalan, ular mamlakatlarning siyosiy va ma'muriy bo'linmalarini, landshaftlarini, iqlimini va boshqa ko'plab tabiiy xususiyatlarini o'rganishlari mumkin. O'quvchilar turli mamlakatlar, qirg'oqlar, daryolar, ko'llar va boshqa geografik obyektlarni interaktiv xaritalar yordamida tahlil qiladilar. Mamlakatlarning landshaftlari, tabiiy hududlari va ularning iqtisodiy resurslari haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar 3D ko'rinishda, ya'ni to'liq bo'rttirilgan va dinamik tarzda Yerning yuzasini ko'rishlari mumkin. Hamda belgilangan joyni dengiz sathidan baladligini va ushbu joyning geografik koordinatasini aniqlashlari mumkin. O'quvchilar turli hududlar o'rtasidagi masofalarni o'lchash, shuningdek, bo'sh joylar va yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Ventusky” ilovasi ob-havo prognozlarini taqdim etishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi va talabalarga ob-havo ma'lumotlarini yanada interaktiv va vizual tarzda kuzatish imkonini beradi. Meteorologik qo'llanilishi sifatida tanilgan Ventusky ilovasi, ob-havoning rivojlanishini tushunishda ilg'or grafiklar va vizualizatsiya usullari bilan yanada aniqroq natijalar taqdim etadi. Ventusky ilovasi talabalarga ob-havo, harorat, yog'ingarchilik, shamol va qor kabi parametrlar bo'yicha 14 kungacha bo'lgan prognozlarni aniq va dinamik tarzda ko'rsatish imkoniyatini beradi. Ushbu grafiklar, ob-havo o'zgarishlarini tushunishda, ayniqsa tezkor o'zgarayotgan sharoitlarda foydalidir. Shuningdek, diagrammalarda xavfli ob-havo sharoitlarini avtomatik ravishda ajratib ko'rsatuvchi xususiyati mavjud. Ilova talabalarga chiziqli va chiziqsiz grafiklar o'rtasida tanlov qilish imkonini beradi, bu esa ob-havo o'zgarishlarini turli usullar bilan kuzatishga imkon yaratadi. Grafiklar talabalarga harorat va shamolning rivojlanishini bir vaqtning o'zida ko'rishga imkon beradi.

“LearningApps” platformasi o'quvchilarning ta'lim jarayonini jonlantiruvchi va interaktivlashtiruvchi qulay vosita bo'lib, u geografiya fanidan o'zlashtirgan bilimlarni mustaqil ravishda baholash imkonini beradi. Bu platforma o'quvchilarning bilimlarini test qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. LearningApps o'quvchilarga matnli, audio, va vizual materiallarni birlashtirgan interaktiv mashqlar yaratishga imkon beradi. “LearningApps” platformasi turli xil interaktiv o'quv modullarini taqdim etadi. Masalan, “Juftlarni topish”, “Bo'sh joyni to'ldirish”, “Xronologik jadval”, “Topishmoq”, “Tasniflash” kabi mashqlarni qo'llash orqali o'quvchilar mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlashadi. Ushbu modullarni

geografiya darslarida quyidagicha qo'llash mumkin. *Juftlarni topish*: O'quvchilarga Yevrosiyo materigining turli hududlariga tushadigan quyosh radiatsiyasini ularning miqdoriga oid ma'lumotlarni ajratish vazifasi berilishi mumkin. Masalan, har bir hududga tushadigan quyosh radiatsiya miqdoriga qarab to'g'ri juftlashtirish. *Xronologik jadval*: O'quvchilarni yog'in miqdorining o'zgarish dinamikasi va uning geografik taqsimlanishi bilan tanishtirish. Har bir faslda yog'in miqdorining ortishi yoki kamayishi haqida ma'lumotlar kiritilishi mumkin. *Bo'sh joyni to'ldirish*: Hududlardagi haroratlarning o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlarni bo'sh joylarga kiritish vazifasi o'quvchilarga ob-havo ma'lumotlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. *Topishmoq*: Yevrosiyaning eng sernam hududi qaysi? Eng quruq hududi qayer? Eng sovuq bo'ladigan hududni belgilang. Eng issiq bo'ladigan joyni aniqlang. Shu kabi savol va topshiriqlarni bajarishda LearningApps platformasi ajoyib vosita hisoblanadi. Geografiya ta'limi jarayonida "LearningApps" onlayn platformasidan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini takomillashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi. LearningApps platformasi mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

"Wordwall" dasturiy ilovasi geografiya ta'limi jarayonida samarali foydalanish uchun qulay va innovatsion vosita hisoblanadi. Bu dasturiy ilova o'quvchilarga turli interaktiv mashqlar, viktorinalar, krossvordlar, flesh kartalar, va boshqa interaktiv mashqlarni taqdim etish imkonini beradi. Dastur o'qituvchilar va o'quvchilar uchun qulay va oddiy interfeysga ega bo'lib, foydalanuvchilar maxsus bilim yoki ko'nikmalarni talab qilmasdan foydalanishlari mumkin. Dasturda geografiya fanidan foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O'qituvchilar geografiya bo'yicha darslarni interaktiv tarzda olib borish uchun kerakli shablonlar va mashqlarni yaratishlari mumkin. Masalan, krossvordlar, viktorinalar, bo'sh joylarni to'ldirish kabi mashqlarni yaratar ekan, geografik tushunchalarni mustahkamlash mumkin. "Wordwall" dasturiy ilovasi internetga ulanishsiz ham ishlaydi, bu esa o'quvchilar va o'qituvchilarga istalgan joyda mashqlarni bajarish imkonini yaratadi. Bu afzallik mustaqil ta'lim olish jarayonida alohida o'rin tutadi, chunki o'quvchilar uydan yoki mobil qurilmalardan foydalanib, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishlari mumkin. Dastur foydalanuvchilarga o'qitish jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. Foydalanuvchilar interaktiv mashqlarni tezda yaratishlari mumkin. Shablonlar oldindan tayyorlangan bo'lib, ular kerakli fan mavzulariga moslashtirilgan holda foydalanishga tayyor holga keltiriladi. O'qituvchilar yaratgan shablonlar shaxsiy kabinetda saqlanadi va keyinchalik qayta ishlatilishi mumkin. Bu o'qituvchilarga o'z darslarini moslashtirish va takroran foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, shablonlar turli tillarda mavjud bo'lib, xalqaro o'quvchilar bilan ishlashda ham samarali vosita bo'ladi. Dasturda geografiya faniga oid maxsus shablonlar mavjud bo'lib, ular orqali o'quvchilarga geografik ob'ektlar, xaritalar, aholi punktlari va boshqa geografik tushunchalarni o'rgatish mumkin. *Krossvordlar*: Geografik atamalarini o'rgatish uchun krossvordlar ishlatilishi mumkin. O'quvchilar shuningdek, geografik joylarni aniqlash yoki dunyo xaritasini o'rganishda foydalanadigan krossvordlar yaratishi mumkin. *Viktorinalar*: "Wordwall" yordamida o'quvchilar geografiya bo'yicha viktorinalarda qatnashib, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishlari mumkin. Masalan, mamlakatlarning poytaxtlari, tabiiy hududlar, orollar va boshqa geografik ma'lumotlarga oid viktorinalar. *Flesh kartalar*: O'quvchilar geografik joylar, mamlakatlar va boshqa ob'ektlarni flesh kartalar yordamida o'rganishlari mumkin. Bu, ayniqsa, kichik geografik hududlar yoki joylarni tezda eslab qolishda foydali bo'ladi. *Bo'sh joylarni to'ldirish*: Geografik xususiyatlar, hududlar va boshqa tushunchalar bo'yicha mashqlarni to'ldirish orqali o'quvchilarni mavzuga oid savollar bilan tanishtirish mumkin. Masalan, "Afrikadagi eng katta daryo..." kabi savollarni bo'sh joylarni to'ldirish mashqlari sifatida yaratish mumkin. "Wordwall" dasturiy ilovasi geografiya ta'limida interaktiv mashqlar yaratish, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va darslarni qiziqarli qilish uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Dastur o'qituvchilarga darslarni shaxsiylashtirish, o'quvchilarga esa bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini beradi.

"iSpring" dasturi geografiya ta'limida o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish maqsadida o'qituvchilarga interaktiv viktorinalar, testlar, so'rovlar va mashqlar yaratishda yordam beradi. Geografiya ta'limida murakkab mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. iSpring dasturida 3D kitoblar yaratish imkoniyati mavjud. Bu o'quvchilarga fan mavzularini o'zlashtirishda qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishtirish, rasmlar, slaydlar va boshqa ko'rgazmali vositalar yordamida tasavvur va ko'nikmalar hosil qilish imkonini beradi. O'qituvchilar uchun bu yangi mavzuni tushuntirishda juda qulay vosita bo'ladi, chunki o'quvchilar materialni interaktiv tarzda ko'rishadi va tezroq o'zlashtiradilar. Bilimlarni tekshirish o'qitish jarayonining ajralmas qismidir. iSpring dasturida, o'qituvchi tomonidan tuzilgan testlar orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari, mustaqil bilim olishlari va tafakkurlari o'sishini aniqlash mumkin. Dastur yordamida pedagogik testlar, o'quv materialini tizimlashtirish, umumlashtirish va mavzuni chuqurlashtirish kabi vazifalarni bajarish osonlashadi. "iSpring QuizMaker" dasturi orqali o'qituvchilar turli

xil testlar, viktorinalar va so'rovlar yaratishlari mumkin. Ushbu dastur foydalanuvchilarga 20 dan ortiq turdagi savollarni qo'llash imkonini beradi, jumladan, rasmdagi maydonni to'g'ri tanlash, elementlarni ikkita ustunga “bog'lash” yoki yetishmayotgan so'zlarni kiritish talab qilinadigan savollar. Bu o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar iSpring testlariga o'z vaqtida javob berishadi. Testlar 100 ta savoldan iborat bo'lsa, dastur har safar 25 tasini tanlab olish imkonini beradi, bu esa savollarni yangilab, testning bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Testni yakunlaganidan so'ng, o'quvchi natijalarni ko'rish imkonini beradi, bunda to'g'ri javoblar yashil rangda, noto'g'ri javoblar qizil rangda yoki “to'g'ri”, “noto'g'ri” deb belgilangan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga o'z xatolarini ko'rish va o'rganishda yordam beradi. Test natijalari o'qituvchi tomonidan baholanishi va tahlil qilinishi mumkin. O'quvchilarning javoblari markazlashtirilgan holda yig'iladi, bu esa o'qituvchiga tezda va samarali tarzda natijalarni ko'rish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kompyuter tarmoqlari mavjud bo'lgan ta'lim muassasalarida foydalidir. Testlar va viktorinalarni multimedia fayllari, masalan, rasmlar, audio va video bilan qo'shish mumkin. “iSpring QuizMaker” yordamida testlarning interaktivligi oshadi, chunki ular nafaqat yozma savollarni o'z ichiga oladi, balki vizual va eshitish materiallari bilan ham boyitilgan bo'ladi. iSpring dasturi geografiya ta'limida interaktiv, zamonaviy va samarali vosita sifatida foydalanishga juda qulay. U o'qituvchilarga testlar yaratish va o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish imkonini beradi. Testlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, testlar va viktorinalar yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan darslar tashkil etish mumkin. iSpring dasturi o'qituvchilar uchun qulay va samarali vosita bo'lib, geografiya ta'limida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining geografiya ta'limida qo'llanishi o'quvchilarga o'qish, eshitish va ko'rish orqali materialni o'zlashtirish imkoniyatlarini oshiradi. AKT ilovalari va dasturlarida rasmlar, animatsiyalar, video materiallar va interaktiv elementlar yordamida o'quvchilarga geografik bilimlarni o'rganish juda samarali tarzda taqdim etiladi. Geografik joylashuvlar, iqlim sharoitlari, relyef ko'rinishlari va boshqa muhim jihatlarni vizual tasvirlar yordamida tushunish o'quvchilarning materialni yodda saqlash darajasini oshiradi. Ko'rgazma elementlari o'quvchilarga abstrakt ma'lumotlarni aniq tasavvur qilish imkonini beradi, bu esa mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilarni yanada faol va mustaqil o'rganishga undaydi. Shunday qilib, AKT ilovalari va dasturlari ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar sifatida o'zining muhim ahamiyati oshirib boradi.

Adabiyotlar:

1. Abdimurotov, O. U. (2023). Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari. “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293-b.
2. Abdimurotov, O. U. (2022). Improving the Methodology of Working with a Map in the Process of Organizing Independent Education in Geography Courses. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1725-1729.
3. Uralovich, A. O. (2024). "Project method" in organizing independent education of future geography teachers under credit-module system. *American Journal of Education and Learning*, 2(3), 151-158.
4. Uralovich, A. O. (2024, May). Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining didaktik kompetentsiyasini mustaqil ta'lim jarayonida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari. In *Konferensiyalar | Conferences* (Vol. 1, No. 11, pp. 327-331).
5. Uralovich, A. O. (2022, December). The importance of using information technologies in geography education within the conditions of the credit module system. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 1, No. 3, pp. 262-267).
6. Абдимуротов, О. У. (2022). Модули таълим технологияси асосида табиий география курсларида амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2022. 5-son. 21-27.
7. Rajabov, F. T., & Abdimurotov, O. U. (2020). Methods of using new pedagogical technologies in the organization of practical training in natural geography courses. *Academic research in educational sciences (ares)*, 12, 2181-1385.
8. Abdimurotov, O. U. (2020). The importance of working with maps in the practical training of natural geography courses. *Prospects for the development of science and education*. In *Third Conference Package*. June (Vol. 26, pp. 2181-0842).

9. Uralovich, A. O. (2020). The effectiveness of the use of "case-study" technology in the organization of practical training in the course "natural geography". *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(S6), 774-777.
10. Uralovich, A. O. (2021). Forms of organization of practical trainings in geography classes and their purpose, tasks and importance. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 89-94.
11. Uralovich, A. O. (2021, November). Problems of geography education in uzbekistan. In *Archive of Conferences* (pp. 65-69).
12. Abdimurotov, O. U. (2020). Tabiiy geografiya darslarini mustaqil o'rganishda interfaol metodlardan foydalanishning imkoniyatlari. *Academic research in educational sciences*, (3), 1306-1312.
13. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida. "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnali 2023. 6-son. 106-110 b.
14. Abdimurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta'limni tashkil etishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi. "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў" илимий-методикалық журнал. 2023. 6/4-сан. 72-81 b.
15. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositalari. FAN va JAMIYAT ilmiy-uslubiy jurnal. №5/2-son. 2024. 56-59-b.